

XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)
787/22-261-LS – sonli

“30” Avgust 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi direktor o'rinosari K.Ximmatkulov bir tomondan va OOO AMIRSHOX STROY QURILISH MCHJ (Keyingi o'rinnlarda «Bajaruvchib» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi D. Axmedov ikkinchi tomonidan “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 20.08.2022 yildagi 35525-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzildi.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchib» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqish majburiyatini oladi: **Samarqand tumani Obod MFY ichki yuli joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjalatlari ishlab chiqishbelgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.**

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqish uchun topshirig berish, loyiha-smeta hujjatlari tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomanining 2 va 3 bandalarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlami amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan **463173(to'rt yuz oltmis uch ming bir yuz yetmis uch)so'mni tashkil qiladi.**

3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: **«Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10(o'n)bankkuniichidashartnomabosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovnini amalga oshiriladi.**

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-lovada ko'satilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchib»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchib» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchib» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanan jarayonida aniqlangan kamchiliklarni uchun javobgaridir.

4.2. «Bajaruvchib» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlaming) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchib»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'nda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovnini amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'satilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishiда «Bajaruvchib»ga yordamga ko'satish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'nda tutilgan maqsadlarda foydalanan, «Bajaruvchib»ning roziligidiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchisi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlar o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchib»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchib» o'z majburiyatlarini sisatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchib» tomonidan loyiha-smeta hujjatlari «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlarni boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyerha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchib» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchib» loyiha-smeta hujjatlari tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rivoja qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklarni yoki «Bajaruvchib» xatosi bilan ko'nga tutilmagan qo'shimcha ishlarni va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchib» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchib» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchisi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarini o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'лади.

5.4. «Bajaruvchib» loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosasi va ekspertiza uchun to'lovlarini amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjalari muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab **20 kun** ichida «Bajaruvchib» tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinish lozim.

6.2. «Bajaruvchib» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandalarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchib» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmashligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatganda holda ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardon qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalan ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'nda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab **20 kun** ichida «Bajaruvchib» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldini «Bajaruvchib»ni habardon qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnoma ko'nda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosaga uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMoyalash

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchib» konfidenzial hisoblanadigan ma'lumotlarni ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi» dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlар ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom etirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilibshini muhokama qildilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarni buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlar ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklammagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakiillariga naqd poldi yoki boshqa shaklda (lekin cheklammagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihami muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi»ni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limga belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnoma ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchiligi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jaib qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'shiladili.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kundlik muddatda hal etiladi. Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukuki kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMILARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteka bank"

L/s: 304521860184067045990118023


STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED: 70220

Direktor o'rinosi:

K.Ximmatkulov



"BAJARUVCHI"

Nomi: OOOAMIRSHOX STROY QURILISH MCHJ

Manzili: Samarqand viloyati Oqdaryo tumani Qorateri QFY Jo'raboy q/q

Bank nomi: "KAPITALBANK" AT Samarqand filiali

X/R: 20208000705095640002

MFO: 01061

STIR: 306542864

OKED: 41202

Direktor:

A. Zahidov



Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarining shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist B. edam!

Yurist _____

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010


Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN) 201122919 MFO 00014 OKED: 97160

Tel 2335853, 231-11-52

Ro'yxatga olindi. R. Jack



BAYONI

Samarqand shahri
Raislik qiluvchi

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Sultanmuradov Elyor
Erkinovich

K.Ximmatkulov

«25.08.2022 y.

Maxmudov Sherzod
Ulug'bekovich

Bekmirzayev Azim
Xasanovich

Abdurayimov Sobir Mamarajabovich
Narmatov Xurshid Umrbayevich

Komissiya raisi o'rinnbosari Bosh muhandis

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i,
Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK direktori K.Ximmatkulov so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quiydagi

1. Samarqand shaxar M.Shayxzoda MFY Bekabod 1-berk ko'chasi
2. Samarqand shaxar Angarolmos MFY Ichki yullarini
3. Samarqand shaxar Mirishkor MFY Abdurahmon Jomiy ko'chasin
4. Samarqand shaxar Charmgari MFY Chilonzor ko'chasin
5. Samarqand shaxar Ilmobod MFY 2-proyezd ko'chasin
6. Samarqand shaxar Ilmobod MFY Xamro markazi ko'chasi
7. Samarqand shaxar Do'stlik MFY ichki ko'chalar
8. Samarqand tumani Diyor MFY "Samarqand" ko'chasin
9. Bulung'ur tum Saxovat MFY Qum q/q 59 muktabga boruvchi ichki yulni
10. Pasdarg'om tumi Solpi qishlog'i 34-muktabga borish yo'llini
11. Pasdarg'om tumani Zarmon MFY Zarmon qishloq qabristoniga borish yo'lli
12. Pasdarg'om tuman Nayman MFY Lazozi ko'chasi
13. Samraqand tumani Diyor MFY "Toshkent" ko'chasi
14. Samraqand tumani Koziariq MFY ichki yo'lli
15. Samraqand tumani Obod MFY ichki yo'lli
16. Samraqand tumani Yangi obod MFY ichki yo'llarini
17. Samraqand shaxar Chordara MFY ichki yo'llini
18. Samraqand shaxar Nayman MFY Nayman ichki yo'llini
19. Nisbot MFY Xolmuxammad Nurillayev 1 tor ko'chasin
20. Samraqand sh Charmgari MFY Kaftar proyezd 1 ko'chasin
21. Samraqand shaxar Charmgari MFY Charmgaron ko'chasin ichki yulni joriy ta'mirlash (Uchastok Ne4 ul Kaftar-vorota vodzabora)
22. Samraqand shaxar Bobur Mirzo ko'chasin
23. Samraqand shaxar Xaymar MFY Guliston ko'chasi
24. Samraqand shaxar O'zbekiston ko'chasin
25. Samraqand shaxar Nodirabegim ko'chasin
26. Samraqand shaxar Olimlar ko'chasin
27. Samraqand shaxar Umid ko'chasin
28. Samraqand shaxar Erkinlik ko'chasin
29. Samraqand sh Yangi yo'l-Lev Tolstoy va Chexov ko'chalarini
30. Samraqand shaxar Mo'lyonipoyon MFY dashtaki bolo ko'chasi 76-muktabga borish ichki yo'llini
31. Samraqand shaxar Ko'shbokoli MFY T.Zexniy proyezd 4 ko'chasin
32. Samraqand shaxar Afrosiyob MFY Maftuna A'zam ko'chasin
33. Samraqand shaxar Sharq Tongi MFY Oybek to'rtinchli yulak ko'chasin
34. Samraqand sh Tazar MFY Sarbadorlar 2-proyezdn ko'chasi
35. Samraqand shaxar Konigil MFY Xo'jalar ko'chasin
36. Samraqand shaxar Joysuy MFY Sarbon ichki yo'llini
37. Shaxriobod MFY Oybek kuchasini asosiy ko'chasin
38. Qo'shaqoli MFY 23-muktabga borish yo'llini
39. Charmgari MFY Sayxun ko'chasin ichki yo'llini
40. Termez ko'chasin loyiha smeta xujjalari ishlab chiqish
41. Andijoniy MFY ichki yo'lli
42. Ming Tut MFY Muazamaxon ko'chasin
43. Xo'ja G'unyoish MFY Chingil ichki ko'chalarini
44. Xo'ja G'unyoish MFY Sharkobot ko'chasin
45. Shaxriobod MFY Mironova tupik (Axmedjanov kuch) ichki yo'llini
46. Yangi xayot MFY ichki yo'llarini
47. Mirzo Bedil MFY, Buyuk Ipak Yo'lli ko'chasi 41-47 va 37-kop qavatlari uyular oldini
48. Muburok MFY Xujum ko'chalarini joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjalari tayyorlash uchun

(Sultanmuradov E, Sh.Maxmudov, S.Abduraimov, A. Bekmirzayev.)

"Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan 2022 yil 11 avgust O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 23 avgustdagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xardilari komissiyasining elektron portalni orqali shakillangan bayonnomalariga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan

"OOO AMIRSHOX STROY QURILISH" MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib

YIG'ILISH QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xardilari to'g'risida"gi 684-tonli Qonuning 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyeklar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xardilari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xardilari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomasi bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmag'anligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'imi boshlig'i. X.Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 23 avgustdagi elektron bayonnomalariga asosan "OOO AMIRSHOX STROY QURILISH" MChJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan taribda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i A.Bekmirzayev, tanlov g'olib "OOO AMIRSHOX STROY QURILISH" MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjalari SHNQ va QMQga mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish zavifasi yuklatilsin.

Komissiya a'zolari

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Sultanmuradov Elyor Erkinovich		Korxona bosh muhandisi
Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich		Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i
Bekmirzayev Azim Xasanovich		Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i
Abduraimov Sobir Mamarajabovich		Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i
Narmatov Xurshid Umrbayevich		Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i